

ODDIY O'RGIMCHAKKANA (TETRANYCHIDAE URTICAE KOSH)NING SONINI
KIMYOVIY USULDA BOSHQARISH

Maxmatmurodov Alisher O'limasovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

"Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklar himoyasi" kafedrasida kafedra mudiri q.x.f.d., dotsent

Negmatov Shodmon Ergash o'g'li

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

"Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklar himoyasi" kafedrasida kafedra assistenti

Shukurov Abdumalik Axtam o'g'li

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

"Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklar himoyasi" kafedrasida kafedra assistenti

+99893 370 88 30

Annotatsiya: Maqolada Samarqand viloyati Jomboy tumani yong'oq bog'larida uchrovchi so'ruvchi zararkunandalarga qarshi akaritsidlarning biologik samaradorligini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Eng yuqori biologik samaradorlik Vertimek 1,8% em.k. gektariga 0,4 l sarflanganda 2022-yilda 92,8% va 2023-yil 94% ni tashkil qildi.

Annotation: The article presents information on determining the biological effectiveness of acaricides against sucking pests in walnut orchards of Jomboy district of Samarkand region. The highest biological efficiency Vertimek 1.8% em.c. 92.8% in 2022 and 94% in 2023 at the consumption of 0.4 l per hectare.

Kalit so'zlar: Zararkunanda, yong'oq bog'lari, oddiy o'rgimchakkana, qo'l purkagichi, IZMM, Fitoverm 5% em.k., Akardo 25% em.k., Vertimek 1,8 % em.k., Neoron 50% n.kuk., andoza va sarf miqdorida.

Key words: Pest, walnut groves, common spider mite, hand sprayer, IZMM, Fitoverm 5% e.v., Akardo 25% e.v., Vertimek 1.8% e.v., Neoron 50% n.kuk., in the amount of sample and consumption.

Kirish

Dunyo bo'yicha Respublikamiz yong'oq yetishtirish va maydoni bo'yicha 8 o'rinda turadi (53,116 ming tonna, maydoni - 5629). 2020 yil 20 dekabr holatiga ko'ra Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi "SAG AGRO" tomonidan barpo qilingan yong'oqzorlar 7560,2 gektarni tashkil etadi.

Yong'oqdan yuqori, sifatli hosil olish uchun yong'oq biotsenozida tarqalgan, hosilga zarar keltiruvchi turli xildagi zararkunanda hasharotlarning tarqalish areali, tur tarkibini, zararlash davri va zarar keltirish darajasi, bioekologiyasini chuqur o'rganib, ularga qarshi samarali uyg'unlashgan kurash choralarini qo'llash yaxshi samara beradi.

O'zbekistonning tabiiy va madaniy yong'oqzorlarida asosan yong'oq mevaxo'ri (Sarrothrypus muscutana ersch), olma mevaxo'ri (Cydia pomonella l.), yong'oq katta biti (Panaphis juglandis goeze), yong'oq kichik biti (Chromaphis juglandicola kalt.), vergulsimon qalqondor (Lepidosaphes uimi l.), oddiy o'rgimchakkana (Tetranychus urticae koch.), shahar mo'ylovdori (Aeolesthes sartasolsk.), va yer ari (Megachile maritima) kabi zararkunandalar uchraydi va katta iqtisodiy zarar keltirishi aniqlangan.

Tadqiqot uslublari. Dala tajribalari Samarqand viloyati Jomboy tumani "SAG AGRO" MCHJ ga qarashli intensiv yong'oqzorlarida olib borildi. Tadqiqotlar o'simliklarni preparatni sinash rejalashtirilgan bog'larda zararkunandani topish va sonini aniqlash uchun

kuzatish olib borildi. Buning uchun bog'larda 10 ta daraxtdan o'rgimchakkanalar soni 7-10 marta kattalashtirib ko'rsatuvchi lupa yordamida sanaldi.


Preparatlarning purkash ishlari K-90 markali matorli qo'l purkagichi yordamida bajarildi. Qo'llaniladigan preparatning sarfi preparat tavsiya etgan ko'rsatmasiga binoan qo'llanildi. Andoza sifatida esa shu kecha kunduzda keng qo'llanilayotgan preparat tanlab olindi. Ishchi suyuqligi hosilga kirgan bog'larda 250-300 l/ga sarflandi. Qo'llanilgan preparatlarning biologik samaradorligi Abbot formulasida aniqlandi. O'rgimchakkanalari soni iqtisodiy zarar miqdor mezoniga (IZMM) yetgachgina tajribalarni qo'yishga kirishiladi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tajribalar uchun akaritsidlardan Fitoverm 5% em.k.- 0,3 l/ga, Akardo 25% em.k.- 0,25 l/ga, Vertimek 1,8% em.k.- 0,4 l/ga va andoza sifatida Neoron 50% n.kuk.-1,2 l/ga qo'llanildi. Kimyoviy preparat sepilgach bir xilda 3, 7, 14 va 21 kunlarda kuzatib borildi.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra Vertimek, 1,8% em.k. preparati oddiy o'rgimchakkana qarshi 0,4 l/ga sarf miqdorida qo'llanilganida eng yuqori biologik samaradorlikni ko'rsatdi. Hisob ishlarining 3 kunida oddiy o'rgimchakkana qarshi nazoratga nisbatan biologik samaradorlik 84,7% ga yetgan bo'lsa, 7 kunga kelib 88,5% va 14 kuni esa 92,8% ni tashkil qildi.

Xuddi shuningdek Akardo 25% em.k. preparati 0,25 l/ga sarf miqdorida qo'llanilgan oddiy o'rgimchakkana qarshi nazoratga nisbatan biologik samaradorlik hisob kunlarining 3, 7 va 14 kunlarida mos ravishda 82,2%, 85,0% va 90,5% ga yetdi. Tajribamizning yana bir variantida Fitoverm, 5% em.k. preparati 0,3 l/ga sarf miqdorida qo'llanilgan oddiy o'rgimchakkana qarshi nazoratga nisbatan biologik samaradorlik hisob kunlarining 3, 7 va 14 kunlari mos ravishda 81,3%, 83,5% va 88,1% ga yetdi. Tajribamizning andoza variantida esa Neoron 50% n.kuk. preparati qo'llanilgan variantda esa bu ko'rsatkich 77,6%, 82,6% va 88,1 % miqdorida bo'ldi. Tajriba o'tkazilgan maydonlarda yong'oqda uchraydigan boshqa zararkunandalarning ham populyatsiyasi soni kamayganligi qayd etildi. (1-rasm)

Oddiy o'rgimchakkanaga qarshi kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi, % (2022 yil)




1-rasm

Tadqiqotlarimizning ikkinchi (2023) yilida oddiy o'rgimchakkanaga qarshi kimyoviy kurashda preparatlarning biologik samaradorligini aniqlash bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, ishlov berilguncha variantlar bo'yicha o'rtacha 1 dona bargda o'rgimchakkanalarning soni 31,8 – 33,4 dona tashkil etgan bo'lib, Neoron 50% n.kuk. preparati andoza sifatida qo'llanilganda biologik samaradorlik 3 kunda 84,9%, 7 kunda esa 87,7% ni tashkil etgan bo'lsa, 14 kunga kelib 91,3 % ni tashkil etdi. Fitoverm 5% em.k. preparati andoza preparatga nisbatan biologik samaradorligi kam bo'ldi. Eng yuqori biologik samaradorlik Vertimek 1,8 % em.k. preparati qo'llanilganda kuzatildi, ya'ni 3, 7 va 14 kunlarda mos ravishda 85,8% 91,2% va 94 % na tashkil etdi.

Fitoverm 5% em.k.preparati tadqiqotning birinchi yilida andoza sifatida olingan Neoron 50 % n.kuk. preparati bilan deyarli teng ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi yilda past ko'rsatkich qayd etganligi aniqlandi. (2-rasm.)

Oddiy o'rgimchakkanaga qarshi kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi, % (2023 yil)



2-rasm

Xulosa. Samarqand viloyati Jomboy tumani “SAG AGRO” MCHJ yong'oq bog'larida eng havfli zararkunanda hisoblangan oddiy o'rgimchakkana (Tetranychidae urticae Kosh)ga qarshi qo'llagan preparatlarimizdan eng yuqori biologik samaradorlik Vertimek 1,8% em.k. gektariga 0,4 l sarflanganda qayd etildi. Xususan biologik samaradorlik 2022-yilda 92,8% va 2023-yil 94% ni tashkil qildi.

ADABIYOTLAR:

1. Кимсанбоев Х.Х. Мевали дарахтларни зараркунандалардан химоя қилиш тадбирлари. // Қишлоқ хўжалиги журналининг Агро илм илмий иловаси. – Тошкент, 2015. – № 5. – Б. 68-69.

2. Махсудова М.И., Машрабов М.И., Хайитов М.А. Влияние антропогенных факторов на уровень фосфатов почвы. Наука и современность – 2011. XII Международной научно-практической конференции. Сборник материалов. Часть 1. Новосибирск, 23 август 2011 г. Новосибирск 2011. -С. 240-244

3. Сангов Р. Экология главнейших вредных чешуекрылых (*lepidoptera*) ореховой плодоярки (*Sarothrips musculana* erssh) и яблоневои моли. Таджикистана. Дисс. на соис. Учен. степ док. Селхоз. Наук. Душанбе. – 2015. – 247 с.

4. Умурзаков Э.У., Пулатов О.А. Грек ёнғоғи ва уни зарарли организмлардан химоялаш. Самарқанд-2021. – 171-172 б.

5. Хўжаев Ш.Т. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (проф. Ш.Т. Хўжаев тахрири остида). –Тошкент.- 2004 . - 103 б.

6. Хайитов М.А., Mashrabov M.I., Mustafoeva O.S. Possibilities of growing high quality vegetables from vegetable crops in the conditions of typical gray soils of Zarafshan valley. Novateur Publication India's International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology [IJIERT] ISSN: 2394-3696, Website: www.ijiert.org, 2020. –P. 210-218.